



# learn english

pronounce library seminar  
business student text  
design exam  
studying study board language  
understanding knowledge online  
speak understanding school lesson course  
educational distance communication training  
distance international trainer



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA  
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR  
VA YANGICHA YO'NALISHLAR

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**XORIJIY TILLAR KAFEDRASI**

**“XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA  
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR  
VA YANGICHA YO'NALISHLAR”**

**Mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman  
materiallari**

**“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2025**

**UO'K: 378.026:811.111**

**KBK: 81.2-9ya43**

**X 76**

Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va yangicha yo'nalishlar [Matn]: to'plam / Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 318 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-1875-son, 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash haqida"gi 124-son qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti xorijiy tillar kafedrasi tomonidan o'tkazilgan "**Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va yangicha yo'nalishlar**" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To'plam materiallaridan filologlar, sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, mustaqil tadqiqotchilar, magistr va talabalar, oliy ta'lim, xalq ta'limi va umumta'lim maktablari o'qituvchilari foydalanishlari mumkin. (Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zları mas'uldirlar)

**Tahrir hay'ati:**

**Ana Tripkovic.** – Comlang, Serbia. Chet tillarini o'qitish metodlari markazi direktori, fan doktori

**Mengliev B.** – Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, filologiya fanlari doktori, professor.

**Teshaboyeva Z.** – Toshkent davlat o'zbek tili adabiyoti universiteti, tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori.

**Abdiyev A.** – Toshkent davlat o'zbek tili adabiyoti universiteti, xorijiy tillar kafedrasi mudiri.

**Asadov M.** – Toshkent davlat o'zbek tili adabiyoti universiteti, tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori (PhD).

**Do'stmamatova N.** – Toshkent davlat o'zbek tili adabiyoti universiteti, tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi, falsafa fanlari doktori (PhD).

**Taqrizchilar:**

**Sayfullayev A.** – Samarqand xalqaro texnologiyalar universiteti o'quv ishlari bo'yicha prorektor, falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent.

**Quldoshev U.** – Samarqand davlat chet tillar instituti, Xorijiy tillar kafedrasi, falsafa fanlari doktori (PhD).

To'plam ToshDO'TAU Ilmiy va o'quv-uslubiy kengashining 2025-yili "\_\_\_\_" \_\_\_\_-sonli qarori bilan nashrnga tavsiya etilgan.

**ISBN 978-9910-06-462-3**

**© Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2025.**

**© "Bookmany print" nashriyoti, 2025.**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti, xorijiy tillar kafedrasи tomonidan 2025-yilning 4-mart kuni o‘tkaziladigan “Xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va yangicha yo‘nalishlar” mavzusidagi xalqaro-ilmiy anjuman.

Ilmiy-amaliy anjumanning maqsad va vazifalari o‘qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar va soha mutaxassislari hamda talabalar o‘rtasida muloqot va fikr almashish muhitini yaratishga qaratilgan bo‘lib quyidagi maqsad va vazifalarni o‘z ichiga oladi:

1. Onlayn ta’lim: muammo va yechimlar.
2. Xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy-innovatsion usullari.
3. Mustaqil ta’limni takomillashtirishda xorijiy tajribaning ahamiyati.
4. Xorijiy tillarni o‘qitishda tarjima va adabiyotning o’rni
5. Adabiyotshunoslik va tarjima muammolari
6. Zamonaviy tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalari

## MUNDARIJA

1. <b>Abdiyev Akmal Urakbayevich.</b> ANDRAGOGIK TA'LIMDA AMALGA OSHIRILADIGAN TADQIQOTLAR TAHLILI .....	9
2. <b>Abdiyeva Sayida Irisovna.</b> MIQDOR MA'NOSINI IFODALOVCHI BIRLIK LARNING TIL TIZIMIDAGI O'RNI. ....	14
3. <b>Abdiyeva Vazira Ashurovna.</b> MULOQOT VA MADANIYAT TUSHUNCHALARINING O'ZARO ALOQALARI.....	19
4. <b>Abdraxmanova Maksatxon Abduganievna.</b> ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MODALLIK KATEGORIYSI VA MODAL SO'ZLARNING HUSUSIYATLARI .....	23
5. <b>Akmatova Ainisa, Pakhyrova Zhyldyzkhan, Keneshbekova Adina.</b> MEDIA LITERACY EDUCATION IN HIGH SCHOOLS.....	30
6. <b>Amirqulov Dilshod Toshtemirovich.</b> TAQLID SO'ZLARNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O'RNI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	36
7. <b>Ataullayeva Sitorabonu.</b> LANDSCAPE AND INTERIOR IN KATHERINE MANSFIELD'S STORIES.....	42
8. <b>Ataullayeva Sitorabonu.</b> WOMEN CHARACTERS IN LITERATURE: EVOLUTION AND IMPACT .....	47
9. <b>Begibayeva Farog'at Baxtiyor qizi.</b> INGLIZ TILIDA INTERNET KOMMENTARIYALARDA "HAMDARDLIK BILDIRISH" NUTQIY JANRINING O'ZIGA XOSLIGI .....	51
10. <b>Bekmuradova Zebiniso Erkinovna.</b> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA XIAZM HODISASINING O'RGANILISHI .....	55
11. <b>Berdimurodov Adham Musurmonovich.</b> LINGVISTIK TADQIQOTLARDA INKOR SO'ZLARNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	59
12. <b>Buriyeva Nilufar Baxtiyor qizi.</b> LINGVOMAMLAKATSHUNOSLIKNING FAN SIFATIDA XORIJDA VA O'ZBEKİSTONDA O'RGANILISHI .....	63
13. <b>Eshboyeva Shoira Azamatovna.</b> O'ZBEKİSTONDA VA XORIJY MAMLAKATLARDA INGLIZ TILINI MEDİATEXNOLOGİYALAR ASOSIDA O'QITISH TAJRIBASI TAHLILI .....	69

10.Buckingham, D. (2003). Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Cambridge: Polity Press.

## TAQLID SO‘ZLARNING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘RNI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Amirqulov Dilshod Toshtemirovich<sup>1</sup>

DOI: 10.52773/tsuull.conf. 2025./EVEE8755

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada tilning kelib chiqishi bilan bog‘liq turli nazariyalar tahlil qilinib, xususan, **Taqlid so‘zlar** keng yoritilgan. Mazkur nazariyaga ko‘ra, insonlar dastlab tabiatdagi turli tovushlarni eshitib, ularga taqlid qilish orqali ilk so‘zlarni yaratganlar. Tadqiqot davomida qadimgi yunon faylasuflari Demokrit va Platonning fikrlari, shuningdek, turli tilshunos olimlarning ilmiy yondashuvlari tahlil qilingan.

Maqolada taqlid so‘zlarning lingvistik xususiyatlari, tasnifi hamda ularning o‘zbek tilshunosligida mustaqil so‘z turkumi sifatida qaralishi haqida bahs yuritiladi. Shuningdek, taqlid so‘zlar tovushga va holatga taqlid qilish xususiyatiga qarab guruhlangan bo‘lib, ular turli misollar bilan boyitilgan. Ushbu maqola tilshunoslik, ayniqla, fonetika va semantika yo‘nalishida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** derivatsion, lingvistika, onomatopoeia, sintaktik, tasnif, taqlid,

Til insonlar o‘rtasidagi eng asosiy aloqa vositasi bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllanib, umumiy manfaatlarga xizmat qiladi. Tilning kelib chiqishi va rivojlanishi jamiyatning o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, inson kamoloti bilan shug‘ullanuvchi barcha fanlar til bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Tilning tabiatini va mohiyati, uning jamiyatdagi roli, tuzilishi hamda bu tuzilmani tashkil etuvchi qismlarning o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, tilning ishlash mexanizmi va qonuniyatlarini chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun tilni har tomonlama tadqiq etish zarurdir.

---

<sup>1</sup> Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,  
adilshod9001@gmail.com

Tilning kelib chiqishi haqida fan doirasida turli qarama-qarshi nazariyalar mavjud bo‘lib, ular o‘zaro munozara va bahs-munozaralar asosida shakllangan. Ba’zi nazariyalarga ko‘ra, til insonlarning o‘zaro muloqot qilish ehtiyojidan kelib chiqqan bo‘lsa, boshqalar til dastlab ayrim shaxslarning o‘z fikrlarini avval o‘zlari, so‘ng boshqalar uchun ifodalash zarurati natijasida paydo bo‘lgan deb hisoblaydi.

Shu sababli, tilning paydo bo‘lishi va shakllanishi haqida turlicha fikr-mulohazalar, farazlar hamda nazariyalar ilgari surilgan. Ushbu nazariyalarni chuqur o‘rganish va tanqidiy tahlil qilish zarur. Asosiy nazariyalar esa to‘rt turga bo‘linadi[1].

1. *Ovozga taqlid nazariyasi*
2. *Undovlar nazariyasi*
3. *Mehnat hayqiriqlari nazariyasi*
4. *Ijtimoiy kelishuv nazariyasi*

Biz quyidagi nazariyalardan birinchisini, ya’ni “*Ovozga taqlid nazariyasi*” ya’ni “*taqlid so‘zlar*”ni ko‘rib chiqamiz. Kishilarning o‘z atrofidagi predmetlarning chiqargan ovoziga taqlid qilishi natijasida dastlabki so‘zlar, predmetlarning nomlari paydo bo‘lgan, deb hisoblaydi. Bu nazariya qadimgi Yunonistonda - Demokrit va Platon davrida o‘rtaga tashlangan bo‘lib, unga ko‘ra ibridoiy odamlar yo ongli, yo ongsiz tarzda turli – tuman tovushlar, ya’ni hayvonlarning baqiriqlari, qushlarning sayrashi, shamol va sharsharalarning ovozlariga taqlid qilishga harakat qilishgan. Keyinchalik bu jarayon fanga **taqlid so‘zlar** yoki **onomatopik** so‘zlar ko‘rinishida kirib keldi. **Onomatopoeia** (*onomatopoeia*) so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, **όνοματοποιία** (*onomatopoiía*) so‘zidan kelib chiqqan. ὄνομα (ónoma) – "ism, nom", ποιέω (poiéō) – "yaratmoq, hosil qilmoq" degan ma’nolarni anglatadi. Shunday qilib, *onomatopoeia* so‘zi "tovushlarni nomlash yoki yaratish" ma’nosini anglatadi[2]. Bu atama lingvistikada tabiatdagi tovushlarga taqlid qilib hosil bo‘lgan so‘zlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Taqlid so‘zlarning grammatik xususiyatlari va tasnifi borasida turli tilshunos olimlarning qarashlari bir-biridan farq qiladi. Ayrim olimlar taqlid so‘zlarni mustaqil so‘z turkumi sifatida tan olish zarurligini ilmiy asoslab bersa, boshqalar bu fikrga qo‘shilmaydi.

Taqlid so‘zlar – o‘zbek tilshunoslari tomonidan *alohida olingan so‘z turkumi* sifatida qaraladi.

Taqlid so‘zlarning mustaqil so‘z turkumi sifatida qaralishini 2010-yilda chop etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida ko‘ramiz. Kitobda taqlid so‘zlarning o‘zbek tilida bir guruhni tashkil etishi aytilib, mustaqil so‘zlar sirasidan o‘rin olganligi ta’kidlanadi va bir qancha ilmiy asoslar keltiriladi:

-turkiy tillarda taqlid miqdoran ko‘p va ma’no jihatdan rang-barang;

-ulardagi tovushlar tizmasi ma’lum obyekiv vogelikdan xabar berib turadi;

-taqlid gap tarkibida ma’lum bir sintaktik pozitsiya egallaydi[3].

Taqlid so‘zlar, eng avvalo, fe'l so‘z turkumining shakllanishiga asos bo‘ladi. Shuningdek, ular ot so‘z turkumining tarkib topishiga ham ta’sir qiladi. Lug‘aviy ma’no ifodalash jihatidan taqlid so‘zlar ikki guruhga bo‘linadi. Mustaqil so‘z turkumi sanaluvchi olmoshlar esa lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmashigi va derivatsion qo‘sishimchalar orqali kamdan-kam yangi so‘z hosil qilishi bilan ajralib turadi. Shu sababli, qaysi biri – olmosh yoki taqlid so‘zlar – mustaqil so‘z turkumiga mansub bo‘lishi kerakligi haqida bahsli savol tug‘iladi.

Ba’zi tilshunoslarning (B. Mengliyev, R. Sayfullayeva) fikricha, taqlid so‘zlar lug‘aviy ma’noga ega bo‘lishi va yangi so‘z yasalishiga asos bo‘lishi sababli mustaqil so‘z turkumiga kiritilishi kerak. Boshqa tilshunoslар esa taqlid so‘zlarni alohida turkum sifatida yoki ba’zi manbalarda oraliqdagи so‘z turkumi sifatida tasniflash maqsadga muvofiq ekanini ta’kidlaydi[4].

Bugungi kunda taqlid so‘zlar tilning ajralmas qismi bo‘lib, tasviriylik va ifodalilikni oshirishga xizmat qiladi. Masalan, itning vovullashi, mushukning miyovlashi, qushlarning sayrashidan kelib chiqqan taqlid so‘zlar mavjud. Shuningdek, jonli va jonsiz narsalarning holatini ifodalovchi taqlid so‘zlar ham tilimizda uchraydi. Shu asosda taqlid so‘zlar ikki guruhga bo‘linadi:

1. Tovushga taqlid so‘zlar
2. Holatga taqlid so‘zlar

### **1. Tovushga taqlid**

Tilshunoslар tomonidan taqlid so‘zlarni tasniflash bo‘yicha turli tadqiqotlar olib borilgan. U. Tursunov, A. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev, A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova, A. Anorbekova, Sh. Mirzayeva, R. Sayfullayeva kabi olimlar bu sohada

ilmiy izlanishlar olib borgan[5]. Quyida ularning tadqiqotlari asosida tovushga taqlid so‘zлarning tasnifini ko‘rib chiqamiz.

Tovushga taqlid so‘zлar tarkibiga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

• **Inson harakat va holatidan kelib chiqqan tovushlarga taqlid:** qars-qars, afshu, chalp-chulp, duk-duk, shalop-shalop. Masalan: *Umidning yuragi “duk-duk”, urib, beixtiyor unga yaqinlashdi. (Mirmuhsin).*

• **Chaqaloqlarning yig‘isi yoki uxlash paytida eshitiladigan tovushlarga taqlid:** inga-inga, pish-pish. *Masalan: Ayolimiz pish-pish uxladi. (Tog‘ay Murod)*

• **Inson quvonchi va qayg‘usini ifodalovchi tovushlarga taqlid:** qah-qah, pix-pix, hingir-hingir, ho‘ng-ho‘ng. *Masalan: Ellikboshi zo‘raki qah-qah urib kului. (Sh. Toshmatov)*

• **Inson nutqi va baqir-chaqiriga taqlid so‘zlar:** pichir-pichir, qiy-chuv, g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir, shivir-shivir, bidir-bidir, piqir- piqir, vag‘ir-vug‘ur. *Masalan: Qizlar nimalarnidir asta so‘zlashib, “piqir-piqir” kulishardi. (O.Yoqubov);*

• **Hayvonlarning ovoziga taqlid so‘zlar:** miyov, vov, uv, irr, maa, vaq-vaq, mee, mo‘o‘, dupir-dupir. *Masalan: burchakda kulcha bo‘lib yotgan mushuk shoshib o‘rnidan turdi va Sidiqjonga qarab “miyov” dedi. (A.Qahhor). Hasharotlarning ovoziga taqlid so‘zlar:* chirr-chirr, vish, viz-viz, g‘uv-g‘uv. *Masalan: “Viz-viz” uchib arilar, gul o‘par sharbat yalab. (Q.Muhamadiy).*

• **Qushlarning ovoziga taqlid so‘zlar:** qag‘-qag‘, ku-ku, kak-ku, chug‘ur-chug‘ur. *Masalan: Qarg‘a „qag‘- qag‘“ etadi, o‘z vaqtini chog‘ etadi. (G’.G‘ulom)*

• **Parrandalarning tovushiga taqlid so‘zlar:** g‘a-g‘a, chip-chip, qu-qu, qa-qa-qa-qaq. *Masalan: G’ozlar, bir so‘z deysizmi? — G‘a, g‘a — g‘a! — Totli suli yeysizmi? (Anvar Obidjon)*

• **Tabiat hodisalari va tabiiy ofatlarga taqlid so‘zlar:** gumbur-gumbur, biliq-biliq, chars-churs, shitir-shitir, g‘uv-g‘uv. *Masalan: Shamol esardi “gir-gir”, yaproqlar “shildir-shildir”. (Q. Muhamadiy).*

• **Jonsiz narsalarning tovushiga taqlid so‘zlar:** g‘iyq, duk, qars-qars, sharaq, taraq, tap, tars. *Masalan: Qamishning tomiri yumshoq bo‘lib, chaynaganda qars- qars ovoz chiqarar edi. (S.Ahmad)*

• Narsalarning bir-biriga urilishi natijasida hosil bo‘ladigan tovushga taqlid: taq-taq, qars-qars, sharaq, taqir-tuqur. Masalan: *Eshik “taraq-turuq” ochilib jun etigini duqqillatgancha, akasi Mo ‘min kirib keldi.* (G. Gulom).

• Texnika va texnik asboblarning tovushiga taqlid so‘zlar: bong-bong, chiq-chiq, taka-tum-tak. Masalan: *Soatning “Chiq-chiq” ovozi odatda kimgadir baxtsizlik olib kelsa, kimgadir ulkan baxt keltiradi.* (Hikoya)

• Transport vositalarining tovushiga taqlid so‘zlar: di-dit, g‘uvv, bip-bip, shaqa-shaq, paq-puq, trrr-trrr. Masalan: *Traktor ham kerosni tamom bo‘lib qolsa, “paq-puq” qiladi-yu, to‘xtaydi.* (A.Qahhor)

## 2. Holatga taqlid

Holatga taqlid so‘zlar ham turli guruhlarga ajratiladi:

• Inson holatiga taqlid so‘zlar: dir-dir, lang, zirq-zirq, duv-duv, yum-yum (yig‘lamoq), sim-sim (og‘rimoq), g‘ij-g‘ij (aql). Masalan: *U o‘g‘lining do‘srlarini ko‘rishi bilan ko‘zlaridan “duv-duv” yosh to‘kildi.* (G. Gulom). **Insonning xususiyatini ifodalovchi taqlid so‘zlar:** jilpang-jilpang, jirt-jirt, qilpang-qilpang. Masalan: *Otaga qizning jilpang-jilpang qiliqlari unchalik yoqmadi shekilli, o‘rnidan turib ketdi.* (Hikoya)

• Harakat holatini bildiruvchi taqlid so‘zlar: pildir-pildir, lapang-lapang, liqang-liqang, gir-gir. Masalan: *Sabil qolgan shaloq aravamizning Qo‘qon aravalaridek liqang-liqang yurishiga ham qancha shodlanamiz.* (Mashrab)

• Ob-havo ta’sirida yuzaga keladigan holatga taqlid so‘zlar: dag‘-dag‘, dir-dir, qalt-qalt, lov-lov, jiz-jiz. Masalan: *Qobil bobo, yalang bosh, yalang oyoq, eshik oldida dag‘-dag‘ titrardi.* (A.Qahhor)

• Yorug‘lik va nur ta’sirida yuzaga keladigan holatga taqlid so‘zlar: lip-lip, milt-milt, jimir-jimir, yalt-yalt. Masalan: *“Kuta-kuta milt-milt o‘chdi chiroqlarim”* (Salim Ashur)

• Tabiat hodisalari natijasida hosil bo‘ladigan holatga taqlid so‘zlar: guppa-guppa, guv-guv, gup, sharros. Masalan: *Guppa-guppa yog‘ar qor, Guyo ko‘kda ini bor.* (G. G‘ulom)

• O‘simliklarning harakati va holatiga taqlid so‘zlar: g‘uj-g‘uj, hil-hil, duv-duv. Masalan: *Hil-hil pishibdi olcha,. Terishvorigin, hoy, Ali.* (A.Akbar)

Yuqoridagi tasnif taqlid so‘zlarning tilimizdagi o‘rnini yanada aniqroq ko‘rsatib beradi. Ushbu so‘zlar turli holat va jarayonlarni ifodalash orqali o‘zbek tilining ifoda imkoniyatlarini boyitishda muhim rol o‘ynaydi.

## XULOSA

Tilning kelib chiqishi haqida turli nazariyalar mavjud bo‘lib, ulardan biri "**Ovozga taqlid nazariyasi**" insonlarning atrof-muhitdagi tovushlarga taqlid qilishi natijasida ilk so‘zlar shakllanganligini ta’kidlaydi. Ushbu nazariya qadimgi yunon faylasuflari Demokrit va Platon tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, keyinchalik lingvistika fanida ham keng muhokama qilingan.

Maqolada taqlid so‘zlarning o‘zbek tilshunosligida alohida so‘z turkumi sifatida qaralishi, ularning grammatik xususiyatlari va tasnifi haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, taqlid so‘zlar tovushga va holatga taqlid qilishga asoslangan bo‘lib, ular tilning tasviriyligi va ifodalilagini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, **Taqlid so‘zlar** inson nutqining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq muhim nazariyalardan biri bo‘lib, taqlid so‘zlar esa til rivojlanishining muhim tarkibiy qismi ekanligi isbotlanadi. Ushbu mavzu bo‘yicha kelgusida yanada chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati mavjud.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmanova Z.T.Tilshunoslikka kirish Toshkent -2007.
2. [https://www.oed.com/dictionary/onomatopoeia\\_n?tab=meaning\\_and\\_use#33586493](https://www.oed.com/dictionary/onomatopoeia_n?tab=meaning_and_use#33586493)
3. Nuraliyev G‘.Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. 2024.: p-52
4. Xudayberanova D. Vol. 3 no. 28 (2024): innovative developments and research in education. p-164
5. R.Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: 2009
6. Qalandar Sapayev Hozirhi o‘zbek tili. – Toshkent.: 2009
7. The Oxford English Dictionary, Volume 1-20, (20 Volume Set) Hardcover –1989

# **“XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA YANGICHA YO‘NALISHLAR”**

## **Mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari**

To‘plam materiallaridan filologlar, sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, mustaqil tadqiqotchilar, magistr va talabalar, oliy ta’lim, xalq ta’limi va umumta’lim maktablari o‘qituvchilari foydalanishlari mumkin. (Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar)

### **“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnomasi raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2025.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84  $\frac{1}{16}$

Nashriyot bosma tabog‘i 17,6. Shartli bosma taboq 18,5.

Adadi 20 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany\_print@mail.ru

t.me/ Bookmanyprint  +998 99 180 97 10